Yuqorida keltirilgan tahlillardan ma'lum bo'ladiki, allomaning tasavvufiy qarashlarida «Yagona Haqiqat» va «Alloh bilan birlashish» tushunchalari markaziy o'rin tutadi. Bu tushunchalar, uning falsafasining asosiy tamoyillarini tashkil etadi va ularning o'rni insonning haqiqiy maqsadi va uning ruhiy sayohatidagi markaziy unsur hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Jaloliddin Rumiy Sharq falsafasida chuqur iz qoldirgan buyuk mutafakkirlardan biridir. U tasavvufni yanada yuksaltirib, insoniy kamolot, ilohiy muhabbat va haqiqat tushunchalarini rivojlantirgan. Uning qarashlari bugungi kunda ham butun dunyoda insoniyatga ilhom bermoqda va Sharq falsafasi merosining ajralmas qismi bo'lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Arberry A.J. Discourses of Rumi. London, 1961, 319 p.

(2). Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy. Toshkent, "MERIYUS", 2010, 791-bet.

(3). Rumiy Jaloliddin. Masnaviy-i Ma'naviy. Tahrir: B.Zarrabi, Tehron, 2015, 718-bet.

(4). Schimmel Annemarie. The Triumphal Sun A Study of the Works of Jalaloddin Rumi. London, Published by East-West Publications, 1980, 428 p.

(5). Seyyed Hussein Nasr. The Garden of Truth. The Vision and Practice of Sufism. Harper One, 2007, 192 p.

(6). William C. Chittick. The Sufi Path of Knowledge: Ibn al-Arabi's Metaphysics of Imagination. Albany, State University of New York Press, 1989, 500 p.

To'yeva Muhayyo Shuxrat qizi (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi; tuyevamuhayyo@gmail.com)

RAQOBATBARDOSH JAMIYATNI TADQIQ QILISHNING NAZARIY KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola raqobat va raqobatbardosh jamiyat tushunchalarini nazariy jihatdan tahlil qiladi. Raqobat insoniyat jamiyati tarixi davomida muhim rol o'ynagan ijtimoiy hodisa bo'lib, u iqtisodiyot, siyosat, fan va madaniyat sohalarida namoyon bo'ladi. Maqolada raqobatning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati, raqobatbardosh jamiyatni shakllantirish omillari, shuningdek, ta'lim tizimining bu jarayondagi o'rni ko'rib chiqiladi. Raqobatni to'g'ri boshqarish va ichki hamkorlikni rivojlantirish orqali jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *raqobat, raqobatbardosh jamiyat, ijtimoiy hodisa, inson kapitali, innovatsion tafakkur, iqtisodiy rivojlanish, ichki hamkorlik, biologik raqobat, ta'limda raqobatbardoshlik, raqobatning ontologik asosi.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация. *Эта статья теоретически анализирует понятия конкуренции и конкурентного общества. Конкуренция – это социальное явление, которое играло важную роль на протяжении всей истории человеческого общества, проявляющееся в сферах экономики, политики, науки и культуры. В статье рассматривается социальное и экономическое значение конкуренции, факторы формирования конкурентного общества, а также роль системы образования в этом процессе. Обсуждаются возможности осуществления позитивных изменений в обществе посредством правильного управления конкуренцией и развития внутреннего сотрудничества.*

Ключевые слова: *конкуренция, конкурентное общество, социальное явление, человеческий капитал, инновационное мышление, экономическое развитие, внутреннее сотрудничество, биологическая конкуренция, конкурентоспособность в образовании, онтологическая основа конкуренции.*

THEORETICAL CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE STUDY OF COMPETITIVE SOCIETY

Annotation. *This article provides a theoretical analysis of the concepts of competition and a competitive society. Competition is a social phenomenon that has played an important role throughout the history of human society and manifests itself in the spheres of economics, politics, science, and culture. The article examines the social and economic significance of competition, factors in the formation of a competetive society, as well as the role of the education system in this process. Opportunities for positive changes in society through the proper management of competition and the development of internal cooperation are discussed.*

Keywords: *competition, competitive society, social phenomenon, human capital, innovative thinking, economic development, internal cooperation, biological competition, competitiveness in education, ontological basis of competition.*

Kirish (Introduction). Raqobat insoniyat jamiyati paydo bo'lganidan beri odamlar kundalik hayotining ajralmas qismiga aylandi. Insoniyat tarixi davomida odamlar yashash va mehnat sharoitlarini yaxshilash, unumdor yerlar uchun, turli afzalliklarga ega bo'lish uchun, jamiyatda o'z ta'siriga ega bo'lish, hokimiyat, moddiy va ma'naviy ne'matlarning eng maqbulidan foydalanish uchun doimo tabiat bilan va o'zaro, bir-birlari bilan raqobatlashgan. "Raqobat" so'zi o'zbek tiliga nemischa "konkurrenz"dan kirib kelgan. Qadimgi lotin tilida "concurro yoki concurrentia" shaklida uchraydi, bu so'zlar tomonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning turli jarayonlarini, masalan, ularning birlashishi va to'qnashuvini bildirish uchun ishlatilgan. Amerikalik faylasuf va psixolog Jeyms Mark Bolduin 1902-yilda o'zining "Falsafa va psixologiya lug'ati"-da raqobatning uchta asosiy turini farqlab ko'rsatib bergan: a) biologik raqobat; b) shaxsiy yoki ongli raqobat; d) savdo va sanoatda raqobat. Shu bilan bir qatorda, menejment va boshqaruv sohasi professori Kilduff va uning hamkasblari 2010-yilda o'zlarining sharhlarida "raqobatni uch tur: individual, guruh va tashkilot)ga bo'lgan va raqobatni ko'proq "subyektiv raqobat munosabatlari" sifatida ajratib ko'rsatishgan".[1] Raqobatbardosh jamiyatni yaratishni falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilganimizda, ta'lim tizimini aksiologik va epistemik qarashlardan xalos qilib, jamiyatni, zamonaviy iqtisodiy jamiyat muhiti bilan integratsiyalashuvning yangi usullarini izlashga zaruriyat sezmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Raqobat nazariyasida, "raqobat bu, (lotincha concurrentia – to'qnashuvdan) – har qanday sohada eng yaxshi natijalarga erishish uchun kurash. Raqobat iqtisodiyot, siyosat, fan, san'at, madaniyat sohalarida namoyon bo'lib, murakkab va ko'p qirrali tushuncha va hodisa sifatida qaraladi".[2] Keng ma'noda, raqobatbardoshlik – bu qo'yilgan maqsadlarga erishishda boshqalardan ustun bo'lish qobiliyati. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, ushbu atamaning umumiy qabul qilingan ta'rifi yoki raqobatbardoshlikni baholash va rivojlantirish usullariga yagona yondashuv hali ham mavjud emas, deb hisoblanadi.

Raqobat keng tarqalgan ijtimoiy hodisa bo'lib, u, bir vaqtning o'zida, barcha tomonlar erisha olmaydigan maqsad sari intilishlarini anglatadi, ba'zan bir tomon maqsadga erishadi va foyda oladi, ikkinchisi esa yo'qotishlarga duch keladi. Raqobat ko'plab fanlar doirasida o'rganiladigan mavzusidir. Biologiya fanida raqobat organizmlar o'rtasidagi munosabatlardan biridir. Zamonaviy jamiyat, ko'pincha, tashqi raqobat ichki hamkorlikka asoslanishi ta'kidlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ichki raqobat, ko'pincha, ichki kurashlarga aylanadi, bu esa, o'z navbatida, xodimlarning ma'naviyati va mahsuldorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy dunyoda mamlakatning barqaror rivojlanishi, iqtisodiy o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda fan va ta'lim sohalarini taraqqiy ettirish muhim strategik ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Mamlakatning raqobatbardoshligi omillari: aholining bilim darajasi, ilmiy salohiyat, muvaffaqiyatli loyihalar tajribasi, inson kapitali asosiy mezonlarga aylandi. Bugun na tabiiy resurslar, na yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, barqaror rivojlanishining kafolati hisoblanmaydi, balki davlatlar va jamiyatlarning barqaror iqtisodiyoti, raqobatbardoshligi inson kapitali va innovatsion tafakkuriga bevosita bog'liq bo'lib qoldi.

Bizningcha, raqobatbardoshlik bu insonlarning yoki tashkilotlarning sog'lom va halol raqobat muhitida faoliyat yuritish qobiliyatidir. Raqobatbardoshlik innovatsiya, moslashuvchanlik, ishonchni qozonish va texnologik rivojlanish kabi tushunchalarning kompleks birligi hisoblanadi. Bu tushuncha iqtisodiyot, biznes, sport, ta'lim va ijtimoiy hayot kabi turli sohalarda qo'llaniladi. Raqobatbardoshlik tushunchasini kundalik hayotda ishlatishda shaxsiy, jamoaviy va milliy raqobat kabi turlarga ajratiladi. Raqobat tushunchasini tahlil qilar ekanmiz, bu tushuncha iqtisodiy atama sifatida M.Porter, F.Kotler, R.Faxrutdinovlar "raqobat mulk yoki aniq ehtiyojning real yoki potensial qondirilish darajasi", deb tavsiflangan.[3]

Dunyo XXI asrning o'tgan 24 yili ichida hayot strategiyalarning yangi va xilma-xil ko'rinishlariga guvoh bo'ldi. Zamonaviy yoshlarning tafakkur paradigmasining keskin o'zgarishi, pragmatik fikrlaydigan

---

[1] Kilduff, Gavin J., Elfenbein, Hillary Anger, Staw, Barry M. "The psychology of rivalry: A relationally dependent analysis of competition". Academy of Management Journal 2010, 53 (5), p. 943–969.

[2] Портер М. Конкурентная стратегия. Методика анализа отраслей конкурентов. Пер. с англ., М., "Альпина Паблишер", 2011, с. 454.

[3] Котлер Ф. Маркетинг, менеджмент. Пер. с англ., Санкт-Петербург, "Питер", 2011, с. 816; Фатхутдинов Р.А. Конкурентоспособность организации в условиях кризиса: экономика, маркетинг, менеджмент. М., "Маркетинг", 2002, 276 с.

odamlarning yangi avlodi yetishib chiqishi, faol mehnat faoliyatiga olib keldi. Hayotimizni yaxshilashga qaratilgan va tafakkurimiz iste'molida yangi tushunchalar paydo bo'ldi. Aholining turmush darajasini yaxshilash uchun qo'llanilayotgan taktik modellarda "raqobat", "raqobatbardoshlik", "raqobatda ustunlik", "raqobat salohiyati", "raqobatbardosh pozitsiyalar" kabi so'zlar asta-sekin ilmiy tadqiqotlarning kundalik leksikoni (umumiste'moldagi zaxira so'z va iboralarning asosiy iste'mol iborasi)ga aylantirdi.

Hozirgi kunda darsliklarda, gazeta maqolalarida, ilmiy nashrlarda, biznes atamalar lug'atlarida va odamlarning kundalik iste'mol so'zlarida "raqobat" tushunchasining turli xil ta'riflari, talqinlarini topish mumkin. Bizningcha, raqobat bu manfaatlar to'qnashuviga asoslangan odamlarning o'zaro harakatlari va o'zlarini mustaqil ravishda himoya qilish zaruratidir. Ushbu harakatlar zarur tovarlar va resurslardan foydalanishda raqobatchilardan ustunlikka erishish, shuningdek, mavjudlik, faoliyat va rivojlanish uchun nisbatan yaxshi sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan.

Raqobatning konstruktiv nazariyasini yaratuvchisi Y.B.Rubin raqobat tushunchasini ta'riflar ekan, u quyidagi komponentlardan "…,eng avvalo, raqobatchilar, raqobat natijalari, raqobatni tashkil etuvchi resurslar, raqobat jarayonlari, raqobat strategiyasi, raqobat taktikasi, raqobatbardosh vaziyat, bozor ishtirokchilarining raqobatbardosh holati"dan tashkil topadigan faoliyatdir.[1]

Raqobatbardosh jamiyat – bu rivojlanish, innovatsiyalar, mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydigan muhit bo'lib, u erkin bozor, adolatli imkoniyatlar va kuchli individual hamda jamoaviy raqobat tamoyillariga tayanadi. Raqobatbardosh jamiyatning quyidagi xususiyatlar asosiy harakatlantiruvchi generatorga aylanadi: a) erkin bozor va iqtisodiy raqobat – korxonalar va tadbirkorlar o'z mahsulot va xizmatlarini taklif qilishda doimiy innovatsiyalar bilan shug'ullanishi; b) ilm-fan va texnologik rivojlanish – jamiyatning ilmiy salohiyati yuksalishi, ta'lim tizimining sifatli bo'lishi raqobatbardoshlikni ta'minlashi; d) siyosiy va huquqiy erkinlik – inson huquqlari va tadbirkorlik erkinligini himoya qiluvchi qonunchilik tizimi mavjud bo'lishi; e) madaniy raqobat – kreativ g'oyalar, innovatsion tafakkur rag'batlantiriladi.

Falsafa antologiya borliqning mohiyatini o'rganadi. Aynan raqobatbardosh jamiyatning antologik asosini o'rganish muhim hisoblanadi. Raqobatbardosh jamiyatning antologik asoslarini borliq va ijtimoiy haqiqat tashkil qiladi. Raqobatbardosh jamiyat borliqning obyektiv va subyektiv jihatlarini o'zida mujassam qiladi. Ijtimoiy haqiqat odamlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar orqali shakllanadi. "Raqobatning zaruriyati – tabiatda mavjud bo'lgan evolutsion tamoyillar jamiyat rivojlanishida ham namoyon bo'ladi. Bugungi globallashuv sharoitida kuchli va moslashuvchan tizimlar raqobatbardosh jamiyatda rivojlanishdab to'xtamaydi".[2] Raqobatbardosh jamiyatning muhim xususiyatlaridan biri jamiyatda subyekt va obyekt munosabatlari – shaxs va jamiyat o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sir raqobatbardoshlikni shakllantiradi. Inson intellekti va kreativ tafakkuri raqobat muhitida yanada yuksaladi.

Falsafada rivojlanishning o'ziga xos qarama-qarshiliklarini, birliklarini ifodalaydigan dialektika qonunlari nuqtayi nazaridan raqobatbardosh jamiyatni tahlil qilinsa, uning o'zgarishi, rivojlanishi, taraqqiyoti va transformatsiyasining mohiyatini anglash oson kichadi. Dialektika har qanday jarayonning qarama-qarshiliklar orqali rivojlanishini tushuntiradi. "Raqobatbardosh jamiyatda ham qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, ular tizimning harakatlantiruvchi kuchlari hisoblanadi".[3] Teskari aloqalar mexanizmi – jamiyat ichida muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik o'zaro bog'liq. Kuchli raqobat ba'zida ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi. Sifat o'zgarishlari – raqobat natijasida jamiyat sifat jihatidan o'zgaradi, eski tizimlar yangilari bilan almashtiriladi. Masalan, an'anaviy ishlab chiqarish tizimlari o'rnini avtomatlashtirilgan texnologiyalarga bo'shatib beradi. Inqiroz va rivojlanish – dialektik nuqtayi nazardan, har qanday jamiyat inqiroz orqali rivojlanadi. Raqobatbardosh jamiyatda ham inqirozlar yangilanishga turtki bo'ladi.

Raqobatbardosh jamiyatni falafada sinergetek tahlil qilganda, murakkab tizimlarning o'z-o'zidan tartiblanish va rivojlanish jarayonlarini tushuntiradi. Raqobatbardosh jamiyat sinergetik nuqtayi nazardan quyidagi xususiyatlarga ega: "O'z-o'zini tashkil etish – jamiyatda bozor mexanizmlari va ijtimoiy institutlar o'zini-o'zi tartibga solib, rivojlanib boradi. Tartibsizlik va tartib o'rtasidagi muvozanat – jamiyat doimiy o'zgarish va muvozanat o'rtasida bo'ladi. Raqobatning haddan tashqari kuchayishi tartibsizlikga olib kela-

---

[1] Рубин Ю.Б. Что такое конкуренция? (введение в теорию конкурентного поведения). Московский Финансово-промышленный университет «Синергия». Современная конкуренция, № 1 (43), с. 104.

[2] Васильев Г.Н., Келасьев В.Н. Самоорганизация целостности: психосоциогенез. Санкт-Петарбург, "СПбГУ", 2003, с. 112.

[3] Цой Л.Н. Социальная организация и самоорганизация: конфликты и развитие личности. "Мир психологии", 2011, № 2, с. 98.

di, shuning uchun ijtimoiy boshqaruv muhim rol o'ynaydi. Innovatsiyalar va o'zgarishlar – har qanday tizim yangi innovatsiyalar va texnologiyalar orqali rivojlanadi".[1] Raqobatbardosh jamiyatda ham bu jarayonlar muhim o'rin tutadi.

Raqobatbardosh jamiyatni falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilar ekanmiz, uning mohiyati erkin bozor, innovatsiyalar va intellektual rivojlanish asosiga qurilganligini ko'ramiz. Antologik jihatdan u ijtimoiy haqiqat va inson faoliyatiga bog'liq, dialektik jihatdan esa qarama-qarshiliklar orqali rivojlanadi. Sinergetik nuqtayi nazardan, jamiyat o'z-o'zini boshqaradigan murakkab tizim bo'lib, unda tartib va xaos birgalikda mavjud. Shu sababli raqobatbardosh jamiyatni boshqarishda muvozanatni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat formatsiyalarining raqobatbardoshlik xususiyatlarini falsafiy tahlil qilish muhim hisoblandi. "Jamiyat taraqqiyoti davomida u turli formatsiyalarga bo'lingan. Har bir formatsiyada raqobatbardoshlikning turlicha ko'rinishlari mavjud bo'lib, albatta, ular jamiyatning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy munosabatlariga bog'liq holda namoyon bo'ladi".[2] Quyida ibtidoiy jamiyatdan to axborotlashgan jamiyatgacha bo'lgan formatsiyalarning raqobatbardoshlik xususiyatlarini quyidagicha namoyon bo'ladi.

Ibtidoiy jamiyatda raqobat tabiiy ehtiyoj va mayillarga asoslangan raqobat hisoblangan. Ibtidoiy jamiyatda raqobat tabiat bilan kurashish va hayot uchun kerakli resurslarni qo'lga kiritish bilan bog'liq bo'lgan. Bu jamiyatda biologik raqobat – odamlar tabiatda omon qolish uchun o'zaro hamkorlik qilish bilan birga, resurslar uchun kurashgan. Guruhlararo raqobat – qabilalar o'rtasida oziq-ovqat, suv va boshpanani egallash borasida raqobat mavjud bo'lgan. Hamkorlik va raqobat uyg'unligi – individual raqobat kuchsiz bo'lgan, chunki jamiyat guruhli yashashga majbur edi. Falsafiy nuqtayi nazardan, bu davrda raqobat shaxsga emas, balki guruhga bog'liq bo'lib, jamiyat biologik va tabiiy shart-sharoitlarga to'liq qaram bo'lgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Quldorlik jamiyatda raqobat, asosan, siyosiy va iqtisodiy ko'rinishga ega bo'lib, raqobat yangi ko'rinish oldi – bu iqtisodiy va siyosiy hukmronlik uchun kurashlar orqali kechgan. Bu formatsiyada, hukmronlik uchun raqobat – jamiyatda asosiy raqobat quldorlar o'rtasida davlat nazoratini qo'lga kiritish uchun kechgan. Ishchi kuchini egallash raqobati – qullar resurs sifatida qaralib, ularni ko'proq egallash iqtisodiy ustunlikka aylangan. Madaniy va ilmiy taraqqiyot raqobati – G'arb va Sharq sivilizatsiyalarida ilm-fan va san'at rivoji boshlangan, bu esa ilmiy raqobatning ilk ko'rinishlarini shakllantirgan. Falsafiy jihatdan bu davrda raqobat shaxsiy erkinlikka emas, balki hukmronlik va resurslarni nazorat qilishga asoslangan bo'lib, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirgan.

Feodalizm jamiyatda raqobat tabaqalanish mulkiy va ijtimoiy tengsizlikga asoslangan. Feodalizmda raqobat quyidagi jihatlarda namoyon bo'ldi. Feodallar o'rtasidagi siyosiy raqobat – hududiy hukmronlik uchun kurash markaziy o'rin egalladi. Qishloq xo'jaligi raqobati – yer resurslari asosiy iqtisodiy omil bo'lgani uchun yer egalari o'rtasida raqobat mavjud edi. Din va mafkuraviy raqobat – turli diniy va ideologik qarashlar o'rtasida kurash kuchaydi. Bu davrda raqobat erkin bozor yoki shaxsiy tashabbus asosida emas, balki ijtimoiy tabaqalanish va hukmronlik iyerarxiyasi orqali kechgan.

Kapitalistik jamiyatda raqobat, bozor raqobati va innovatsiyalarga asoslangan. Kapitalizm raqobatning tubdan yangi shaklini olib keldi. Bozor iqtisodiyotidagi raqobat erkin bozorda mahsulot va xizmatlar uchun kurash asosiy ustunlikka aylandi. Texnologik raqobat sanoat inqilobi va innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishga katta ta'sir qildi. Ijtimoiy va shaxsiy tashabbus shaxs o'z mehnati va qobiliyati bilan raqobatga kirish huquqiga ega bo'ldi. Kapitalizm raqobatni shaxsiy tashabbus va iqtisodiy erkinlik asosida shakllantirib, shaxsga katta imkoniyatlar berdi, biroq ijtimoiy tengsizlikni ham kuchaytirdi.

Sotsialistik jamiyatda raqobat ijtimoiy tenglik va raqobatni boshqarish markazlashgan tizimga asoslandi. Sotsializm kapitalizmga qarshi mafkura sifatida shakllangan va raqobatning boshqa modelini taklif qilgan. Jamoaviy raqobat – shaxsiy emas, jamoaviy samaradorlik raqobatning asosiy mezoniga aylandi. Ideologik raqobat sotsialistik va kapitalistik tizimlar o'rtasida kurash kuchaydi. Davlat boshqaruvidagi raqobatsizlik erkin bozor yo'qligi tufayli xususiy tashabbus kamayib, raqobat markazlashgan boshqaruv orqali cheklangan. Sotsializm tenglik va umumiy farovonlikka intilgani bilan shaxsiy raqobatni susaytirdi, bu esa jamiyatda innovatsiyalar va taraqqiyotni sekinlashtirdi.

Axborotlashgan jamiyatda raqobat intellektual va innovatsion resurslar global raqobat muhitini yaratilishiga olib keldi. XXI asrda jamiyat axborotlarga asoslangan holda tus olishi, raqobatni yangi bos-

---

[1] Келасьев В.Н. Модели социогенеза. Вестник СПбГУ, серия 12, 2010, вып. 3, с. 347–356.

[2] Гуревич А.Я. Теория формаций и реальность истории. История – нескончаемый спор. М., "РГГУ", 2005, с. 376.

qichga ko‘tarildi. Axborot va bilim uchun raqobat bilim va ma’lumotga egalik jamiyatdagi asosiy re-sursga aylandi. Jamiyatdagi raqobatning tabiati sun’iy intellekt, blokcheyn, katta ma’lumotlar (Big Data) va axborot xavfsizligi kabi tushunchalar bilan yangicha mazmun kasb etmoqda.

Tahlil va natijhalar (Analysis and results). XXI asr jamiyatning raqobatbardoshligini yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi kun raqobati faqat iqtisodiy maydonda emas, balki madaniy, ilmiy, axborot texnologiyalari va ma’naviy sohalarda ham kechmoqda. Falsafiy nuqtai nazardan, raqobatbardosh jamiyat – bu o‘zgarishlarga tez moslashuvchi, innovatsiyalarga ochiq va barqaror rivojlana oladigan tizimdir. Ushbu jamiyatda moddiy va ma’naviy boyliklarni shakllantirish, tarqatish va saqlash jarayonlari ochiq va samarali bo‘lishi lozim.

Raqobatbardosh jamiyatda shaxs va jamoatchilik o‘rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. “G‘arb falsafasida individualizm kuchli bo‘lib, shaxsiy erkinlik va innovatsiyaga yo‘naltirilgan bo‘lsa, Sharq falsafasida jamoaviylik va jamoaviy manfaatlar ustuvorlik qiladi. XXI asrda esa raqobatbardosh jamiyat shu ikki tamoyilni uyg‘unlashtirishga intiladi”.[1] Bu degani shaxs o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lishi, biroq u jamiyat manfaatlariga zid ravishda harakat qilmasligi kerak.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bugungi raqobatbardoshlikning asosiy belgisi axborotni to‘g‘ri boshqara olish va tahlil qilish qobiliyatidir. Ma’lumotga ega bo‘lgan va uni innovatsion yondashuv bilan qo‘llay oladigan jamiyatlar taraqqiyotda oldinga chiqmoqda. Falsafiy jihatdan raqobatbardosh jamiyat axloqiy muammolarni ham yuzaga keltiradi. Uning asosiy xavfi jamiyatning faqat iqtisodiy o‘sishga yo‘naltirilib, ma’naviy qadriyatlar chetga surilishidir. Postmodernistik falsafa nuqtayi nazaridan, raqobatbardoshlik bu inson hayotini tovarga aylantirish jarayoni emas, mahsulot, balki, o‘zlarining bilim va ko‘nikmalarini ham bozorga chiqarayotgan davrda yashamoqdalar.

XXI asrda raqobatbardosh jamiyatning yana bir muhim jihati – u ekologiya, ijtimoiy tenglik masalalariga yondashishi muhim hisobanadi. Barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilmagan raqobatbardoshlik uzoq muddatli bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun jamiyat faqat iqtisodiy yoki texnologik raqobatga emas, balki insoniyatning umumiy farovonligiga ham yo‘naltiriladi. Falsafiy nuqtai nazardan XXI asr raqobatbardosh jamiyati bu tez o‘zgaradigan, axborotni faol qo‘llaydigan, ma’naviy va axloqiy tamoyillarni saqlagan holda, inqilobiy texnologiyalar va innovatsiyalarga ochiq bo‘lgan tizimdir. Bu jamiyatda muvaffaqiyatni faqat iqtisodiy o‘sish bilan emas, balki ijtimoiy adolat, barqarorlik va ma’naviy yuksalish bilan o‘lchash muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolani tadqiqi jarayonida quyidagi xulosaga kelindi: birinchidan, falsafiy nuqtayi nazardan, raqobatbardosh jamiyat statik holatda emas, balki doimiy rivojlanish va moslashuv jarayonida bo‘lgan tizimdir. U jamiyatning ichki va tashqi o‘zgarishlariga, mos ravishda, o‘z tuzilmasini takomillashtirib boradi. Bu jarayonda innovatsiyalar, axborot oqimi va bilim almashinuvi asosiy harakatlantiruvchi omillar bo‘lib xiz-mat qiladi;

▪ikkinchidan, ko‘pincha, raqobatbardoshlik faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali baholanadi, ammo falsafiy jihatdan bu tushuncha yanada kengroq qamrovga ega. Ijtimoiy barqarorlik, madaniy innovatsiyalar, ta’lim tizimi, huquqiy va axloqiy normalarning rivojlanganligi ham jamiyatning raqobatbardoshligini belgilaydi;

▪uchinchidan, postindustrial va axborot jamiyatlari sharoitida raqobatbardoshlikning asosiy omili tabiiy resurslar yoki an’anaviy ishlab chiqarish emas, balki intellektual salohiyat va innovatsiyalarga bo‘lgan e’tibor bilan belgilanadi. Bunday jamiyatda ilm-fan, texnologiyalar va ijodiy fikrlash asosiy kuch sifatida shakllanadi;

▪to‘rtinchidan, raqobatbardoshlik faqat kuchli bozor iqtisodiyoti va texnologik yutuqlarga asoslanmasligi kerak. Agar jamiyatda ijtimoiy adolat, ma’naviyat va axloqiy tamoyillar e’tibordan chetda qolsa, u uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erisha olmaydi;

▪beshinchidan, zamonaviy dunyoda raqobat nafaqat davlatlar o‘rtasida, balki transmilliy korporatsiyalar, innovatsion markazlar va raqamli platformalar orasida ham kechmoqda. Shu sababli, har bir jamiyat o‘zining global maydondagi rolini to‘g‘ri baholashi va strategik yo‘nalishlarini aniqlab olishi lozim.

Jamiyatni raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha quyidagi taklif va mulohazalar muhim hisoblanadi.

▪birinchidan, raqobatbardosh jamiyatni o‘rganish uchun tadqiqotchilar tizimli yondashuvdan foydalanishi va ijtimoiy jarayonlarning o‘zgaruvchan tabiatini hisobga olishi zarur. Tadqiqotlarda futurologiya, kompleks tahlil va tizimli modellashtirish metodlari keng joriy etilishi kerak;

---

[1] Михалина О.А. Философия образования Запада и Востока: необходимость развития межкультурного диалога. “Аналитика культурология”, № 34/1, 2009.

▪ikkinchidan, jamiyat faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki ma'naviy va intellektual jihatdan ham rivojlanishi kerak. Buning uchun ta'lim sifati, ilmiy tadqiqotlar va milliy madaniyatni global maydonda targ'ib qilishga e'tibor qaratish lozim;

▪uchinchidan, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida ilmiy markazlar, startaplar va texnologik innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi fondlar tashkil etilishi kerak;

▪to'rtinchidan, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi bilan birga, axloqiy tamoyillarni ham mustahkamlovchi dasturlar ishlab chiqishi lozim. Ta'lim, ommaviy axborot vositalari va diniy hamjamiyatlarning bu boradagi o'rni kuchaytirilishi kerak;

▪beshinchidan, raqobatbardoshlikni oshirish uchun jamiyatlar xalqaro ilmiy hamkorlik, texnologik almashinuv va raqamli integratsiya jarayonlariga faol kirishlari kerak. Bundan tashqari, global tarmoqlarda milliy madaniyat va an'anaviy qadriyatlarni targ'ib qilish strategiyalari ishlab chiqilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Kilduff, Gavin J., Elfenbein, Hillary Anger, Staw, Barry M. "The psychology of rivalry: A relationally dependent analysis of competition". Academy of Management Journal, 2010, 53 (5), p. 943–969.

(2). Портер М. Конкурентная стратегий. Методика анализа отраслей конкурентов. Пер. с англ., М., "Альпина Паблишер", 2011, с. 454.

(3). Котлер Ф. Маркетинг, менеджмент. Пер. с англ., Санкт-Петербург, "Питер", 2011, 816 с; Фатхутдинов Р.А. Конкурентоспособность организации в условиях кризиса: экономика, маркетинг, менеджмент, М., "Маркетинг", 2002, 276 с.

(4). Рубин Ю.Б. Что такое конкуренция? (введение в теорию конкурентного поведения). Московский Финансово-промышленный университет «Синергия», "Современная конкуренция", № 1 (43), с. 104.

5. Васильев Г.Н., Келасьев В.Н. Самоорганизация целостности: психосоциогенез. Санкт-Петарбург, "СПбГУ", 2003, с. 112.

(6). Цой Л.Н. Социальная организация и самоорганизация: конфликты и развитие личности. "Мир психологии", 2011, № 2, с. 98.

(7). Келасьев В.Н. Модели социогенеза. Вестник СПбГУ, серия 12, 2010, вып. 3, с. 347–356.

(8). Гуревич А.Я. Теория формаций и реальность истории. История–нескончаемый спор. М., "РГГУ", 2005, с. 376.

(9). Михалина О.А. Философия образования Запада и Востока: необходимость развития межкультурного диалога. "Аналитика культурология", №34/1, 2009.

Parpiyev Muhammadjon Tolibovich (Andijon davlat Pedagogika instituti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; m.t.parpiyev@andupi.uz)

UYG'ONISH DAVRINING IJTIMOIY TARAQQIYOTGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Uyg'onish davrining ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinib, siyosiy va iqtisodiyot, madaniy hayot, hatto oila tuzilmalarigacha bo'lgan sohalarda o'zgarishlar jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatgani ko'rib chiqiladi. Maqolada Uyg'onish davri an'anaviy tuzilmalarni isloh qilishga yo'l ochgani va bu tenglik va demokratik qadriyatlarning qaror topishiga sabab bo'lgani ochib beriladi. Uyg'onish davri zamonaviy milliy davlatlarning paydo bo'lishiga va jahon savdosining rivojlanishiga qanday ta'sir qilganini o'rganib, davrning ijtimoiy va iqtisodiy manzarasini shakllantirishda madaniyatlararo almashinuv va o'zaro ta'sirning roli tushuntirib beriladi. Ushbu maqola Uyg'onish davrining ijtimoiy taraqqiyotga keng ko'lamli va doimiy ta'sirining qimmatli sharhini taqdim etadi.*

Kalit so'zlar: *Uyg'onish davri, ijtimoiy taraqqiyot, jamiyat, madaniyat, san'at, insonparvarlik, ta'lim, falsafa, tarix, innovatsiya.*

ВЛИЯНИЕ ПРОСВЕЩЕНИЯ НА СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ

Аннотация. *В статье анализируется социально-философская сущность эпохи Возрождения и рассматривается, как изменения в политике и экономике, культурной жизни и даже в структуре семьи влияли на общество. В статье показано, как эпоха Возрождения проложила путь реформированию традиционных структур, что привело к утверждению эгалитарных и демократических ценностей. В статье рассматривается, как эпоха Возрождения повлияла на возникновение современных национальных государств и развитие мировой торговли, а также объясняется роль межкультурного обмена и взаимодействия в формировании социального и экономического ланшафта той эпохи. В статье представлен ценный обзор широкого и долгосрочного влияния эпохи Возрождения на социальный прогресс.*